

INSON va qonun

2023-YIL
24-OKTABR
SESHANBA

№ 42 (1402)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



"ADLIYA ayoli" –

bilim va tafakkur, nafosat va zakovat tanlovi

"Adliya ayoli" tanlovi
bu yil ikkinchi marta
o'tkazilmoqda. Tanlovning
maqsadi adliya organlari
va muassasalarida
faoliyat yurituvchi xotin-
qizlarni qo'llab-quvvatlash
va rag'batlantirish,
ularning ijtimoiy-siyosiy
faolligini yuksaltirish
hamda faoliyatda
tashabbuskorlik va yuqori
natijalarga erishishga
intilish samaradorligini
oshirishdan iborat.

Tanlovda adliya organlari va muassasalarida
faoliyat yuritib kelayotgan 21 nafar ayol ishtirok
etdi. Ishtirokchilar 5 ta shart bo'yicha bella-
shishdi.

Birinchi shart – "Men haqimda" deb nomla-
nib, bunda ishtirokchilar 3 daqiqa ichida
o'zining shaxsiy hayoti, ma'lumoti, qiziqish-
lari, ishdagi yutuqlari, kitobxonlik salohiyati
va boshqa qobiliyatlarini taqdimot orqali
yoritib berishdi. Hakamlar hay'ati tomonidan
ishtirokchilarning bu shartga tayyorgarligi erish-
gan muvaffaqiyatlari, taqdimot qilish qobiliyati,
notiqlik mahoratiga ko'ra baholandi.

Ikkinchi – "Kitobxonlik" shartida ishtirokchilar
o'z intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon

etishdi. Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirok-
chilarning asarni tushunishi, ifodali o'qishi,
to'g'ri tushuntirib berishi, badiiy tahliliga alohida
e'tibor qaratildi.

Uchinchi shartda ishtirokchilarning huquqiy
bilimlari sinovdan o'tkazildi. Ular qonunchilikka
oid dolzarb takliflarni taqdim etishdi.

To'rtinchi shart – sport sharti bo'lib, unda
ishtirokchilar halqa yordamida oldinga yurish
mashqlarini bajarishdi.

Beshinchi shart – tanlovning kulminatsiyasi
bo'ldi. Ushbu shartda ishtirokchilar "Zakovat"
intellektual o'yinida bellashishdi. 2 ta tur,
10 ta savoldan iborat mazkur shart ishtirok-
chilarni tezkor va to'g'ri qaror qabul qilishga,

mantiqiy fikrlashga undadi.

Tanlov yakunida har bir shartda o'z iste'-
dodi, tashabbuskorligini namoyon etib, eng
yaxshi natijalarni qayd etgan ishtirokchilar
taqdirlandi. G'oliblarga pul mukofoti va serti-
fikatlar topshirildi.

Bilim va salohiyat, nafosat va zakovat imti-
honi bo'lgan tanlovda 1-o'rin – Saltanat Raim-
bekova (Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya
vazirligi)ga, 2-o'rin – Mahliyo Abdunazarova
(Jizzax viloyati adliya boshqarmasi)ga,
3-o'rin – Dildora Rustamova (Navoiy viloyat
adliya boshqarmasi)ga nasib etdi.

O'z muxbirimiz

Plastik kartadagi PULLARNI

firibgarlardan himoyalash bo'yicha muhim qoidalar

ENG MUHIM TAVSIYALAR

Firibgarlar nafaqat mobil telefon va hamyonlardagi mablag'larni o'zlashtirishi, balki bank kartalaridagi hisobingizga ham noqonuniy egalik qilishi mumkin. Karta va hisob raqaminingizdagi pullarni himoya qilish uchun ko'plab usullar ishlab chiqilgan.

Firibgarlar tuzog'iga tushib qolmaslik hamda kartangiz hisobidagi pullaringiz xavfsizligini ta'minlash uchun ushbu oddiy qoidalarni eslab qolishni tavsiya qilamiz:

PIN-kodni eslab qoling va hech kimga aytmang. Eng muhimi, bunday ma'lumotlarni kartaning orqa tomonidan yoki ko'rinadigan joylarda saqlamang. Savdo yoki xizmat ko'rsatish paytida kartaning pin-kodini o'zingiz tering va uni ovoz chiqarib aytmang. PIN-kod nimani anglatishi faqatgina karta egasining o'ziga ma'lum bo'lishi kerak.

Kartangiz hisobidagi pul mablag'larini doimiy nazorat qilib turing. Har doim karta hisobidagi pul mablag'lari balansi hamda ularning mavjudligini tekshirib turing. Kartani jamoat joylari (avtomobil, ishxona) da qoldirmang.

SMS-xabarnoma xizmatini ulang. Balansning o'zgarishi hamda karta hisobidan amalga oshirilgan har bir operatsiya haqida xabar beruvchi (hatto pullik bo'lsa ham) SMS-xabarnoma xizmatini ulang. Shundaygina Siz har doim hisobingiz holatini kuzatib borishingiz va shubhali operatsiyalar sodir bo'lganda o'z vaqtida choralar ko'rishingiz mumkin.

Ruxsatsiz pul mablag'i yechil-sa, kartani muzlatib qo'ying. Agar hisobingizdan pul mablag'i yechib olish xavfi vujudga kelganda, bankka qo'ng'iroq qilib, zudlik bilan karta faoliyatini to'xtatib qo'yish kerak.

Hech kimga va hech qachon kartangiz ma'lumotlarini bermang! Firibgarlarning eng keng tarqalgan nayranglaridan biri ma'lum bir bank xizmati nomidan ishonchsiz ma'lumotlarga ega SMS-xabarlarni yuborishi hisoblanadi. Shu yoki boshqa sabablarga ko'ra ma'lumotlarni solishtirib ko'rish maqsadida karta turi, amal qilish muddati, PIN-kodlarini so'raydi.

ESLAB QOLING!

Banklar hech qachon tasdiqlash uchun kodni so'ramaydi. Bank sizga faqat karta hisobidan pul mablag'lari yechib olinganda va hisob to'ldirilgandagina SMS-xabar yuboradi. Har qanday holatda ham sizdan bank kartangizga oid maxfiy ma'lumotlarni so'rashga haqqi yo'q!

Hurmatli fuqarolar!

Ogoh bo'ling hamda plastik kartalaringizdan xavfsiz foydalanishning asosiy qoidalariga rioya qiling, shunda Sizning pul mablag'ingiz xavfsizligi ta'minlanadi.

Maqsud MUSTAFOYEV,

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi

PLASTIK KARTA FIRIBGARLIGI NIMA?

Bank kartalari tovarlar hamda xizmatlar uchun haq to'lashning eng qulay vositasi hamda cheklanmagan miqdorda pul mablag'larini olib yurish uchun tengsiz vositadir. Yurtimiz aholisi uchun ham plastik karta bo'sh pul mablag'larini nazorat qilish hamda boshqarishning qulay usuliga aylandi.

Biroq so'nggi paytlarda bank kartalari bilan bog'liq pul muomalasi noqonuniy tajovuzlar nishoniga aylandi. Bu holat karta egalarning beparvoligi yoki asosiy xavfsizlik qoidalarini bilmasliklari tufayli kelib chiqmoqda.

QANDAY FARQLASH MUMKIN?

Firibgarlar asosan fuqaroning qo'l telefoniga qo'ng'iroq qilib, o'zini bank yoki to'lov tizimining nomidan xavfsizlik, plastik karta, mijozlarni qo'llab-quv-

vatlash yoki boshqa bo'lim xodimi deb tanishtiradi.

Bunday shaxslar mijozning mobil ilovasi buzilgani, bank kartasi blok holatiga tushgani, kartadan noqonuniy pul yechib olishga urinishlar bo'layotgani va shu kabi turli uydirmalarni keltiradi hamda agar darhol chora ko'rilmasa, barcha mablag'lardan ayrilish mumkinligi haqida aytib, Sizni aldashga urinadi. Shundan so'ng, telefoningizga yuborilgan bir martalik SMS-kodni so'rab, sizga yordam berishni taklif etishadi.

Firibgarlarning shu kabi tuzoqlariga tushmaslik uchun ularning quyidagi belgilarini eslab qolishingiz lozim:

- ☒ qo'ng'iroq yoki SMS-xabar yashirin yoki begona raqamlardan keladi;
- ☒ zudlik bilan qaror qilishga undash, "tezroq", "hoziroq", "keyin tushuntiraman" kabi so'zlar bilan sarosimaga solishga urinishadi;

- ☒ telefon orqali firibgarlik qiluvchi shaxslar o'zlarini juda ishonchli tutib, bosim o'tkazishi yoki aksincha muloyimlik bilan va boshqa turli usullar yordamida mijozni o'ziga ishontrishadi. Buning asosiy sababi – mijozni shubhali antisimlik hamda shoshilinch qaror qabul qilishga undash;
- ☒ muayyan savollar berganingizda aniq javobning yo'qligi yoki chalkashlik holati kuzatiladi;
- ☒ pasport ma'lumotlari, karta raqami bilan uning amal qilish muddatini, sizga jo'natilgan tasdiqlovchi kodni yoki boshqa shaxsiy ma'lumotlarni so'rashadi.

ESLAB QOLING!

Aslida boshqa shaxsning kartasiga pul o'tkazish uchun faqatgina karta raqamini bilishning o'zi yetarli hisoblanadi.

Bank kartalaridan foydalanishda OGOHO BO'LING!

Fuqarolarning ishonchiga kirish orqali ularning pul mablag'larini o'zlashtirish, aldov yo'li bilan bank plastik kartalaridagi pul mablag'larini boshqarish huquqini qo'lga kiritish, shaxsga doir ma'lumotlarni ruxsatsiz olish va to'lov evaziga tarqatish kabi moliyaviy firibgarliklardan saqlanang.

Quyidagilarga rioya qiling:

SMS Tasdiqlovchi kodni oshkor qilmang. Har qanday holatda ham SMS-xabar orqali kelgan bir martalik tasdiqlovchi kodni hech kimga oshkor qilmang.

Bank Begona shaxslarga bank kartalari yoki banking mobil ilovasidagi akkauntingiz to'g'risidagi ma'lumotlarni bermang.

Bank Bank kartasiga pul o'tkazish uchun uning 16 xonali raqamini bilish yetarli.

Bank Bank xodimlari plastik kartangizning amal qilish muddati yoki SMS-xabar orqali kelgan tasdiqlovchi kodlarni aytishingizni so'ramaydi!

Shubhali bo'lgan veb-sahifalarda bank kartasi to'g'risidagi ma'lumotlaringiz va SMS-xabari orqali kelgan tasdiqlovchi kodlarni kiritmang.

Hozirgi kunda ko'rinishi jihatdan to'lov tashkilotlarining veb-saytiga o'xshagan soxta sahifalar firibgarlar tomonidan tarqatilmogda.

Internet tarmog'ida veb-sahifalarning rasmiyligini tekshiring.

Saytga bank kartasi to'g'risidagi ma'lumotlar kiritilganda, firibgarlar ushbu ma'lumotlar yordamida plastik kartalarning bank mobil ilovalariga ulanib, pul mablag'larini o'zlashtirishi xavfi mavjud.



■ ■ ■ "MADAD" JAVOB BERADI

UY-JOYNI QAYTARIB OLIISH TARTIBI
QANDAY?

– Bankdan kredit olgan edim. Lekin o'z vaqtida to'lay olmadim. Ko'chmas mulkimiz bo'lgan uy-joyimizni ijrochilar xatlab, auksionga qo'yishdi. Uni qaytarib olsam bo'ladimi?

Nodira ISAYEVA,
Toshkent shahri

– O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, avtomototransport vositalarini, ko'chmas mulkni, shu jumladan yer uchastkasini, qurilishi tugallanmagan obyektlarni, ko'chmas mulkni uzoq muddatli ijaraga olish huquqlarini, yer uchastkasiga nisbatan mulkiy huquqlarni, intellektual faoliyat natijalariga va xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarga bo'lgan mulkiy huquqlarni realizatsiya qilish qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli operator tomonidan elektron onlayn-auksionlarda amalga oshiriladi. Mol-mulkni shartnoma-vositachilik asoslarida realizatsiya qiladigan savdo tashkilotlarini tanlash Bosh prokuratura tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan tanlov asosida amalga oshiriladi. Agar uy-joyingiz auksionda sotilmagan bo'lsa, qarzlaringizni to'liq uzganingizdan so'ng bu uy yagona yashash manzili bo'lsagina, tegishli davlat organlariga murojaat qilib qaytarib olishingiz mumkin.

SPORTCHILARGA IMTIYOZ BORMI?



– Milliy gvardiyaga qabul qilinish uchun sportchilarga qanday imtiyoz bor?

Sarvar TOSHEMIROV,
Samarqand tumani

– O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2020-yil

13-yanvardagi buyrug'iga ko'ra, Milliy gvardiya uchun zarur hollarda ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan fan arboblari, shuningdek madaniyat vakillari, so'nggi besh yil davomida respublika miqyosidagi sport musobaqasining g'olibi bo'lgan yoki xalqaro miqyosidagi sport musobaqasining 1-3-o'rinlaridan birini egalagan sportchilar istisno tariqasida saralashning faqatgina tibbiy ko'rik va maxsus tekshiruv bosqichlaridan o'tadilar.

ADVOKAT BO'LMOQCHIMAN



– Men bu yil Toshkent davlat yuridik universitetini bitiraman. O'qishni bitirganimdan keyin advokat sifatida ishlasam bo'ladimi?

Muxiddin TUVALOV,
Bektemir tumani

– "Advokatura to'g'risida"gi qonunning tegishli moddasiga o'zgartirish kiritish haqida"gi qonunga kiritilgan o'zgartirishga ko'ra, advokat maqomiga ega bo'lishga talabgor shaxs litsenziya olish uchun advokatlik tuzilmasida (advokatlik byurosi, firmasida, hay'atida, yuridik maslahatxonada) kamida 3 oy muddat stajirovka o'tashi kerak. Shuningdek, advokatlikka nomzod malaka imtihonini topshirishi shartligi ham belgilandi. Ilgari talabgor shaxs yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida 2 yillik ish stajiga ega bo'lishi kerak edi.

**Savollarga "Madad" NNT bosh mutaxassisi
Abror EZOXONOV javob berdi**



YUNESKO vakillarining ma'lumotlariga qaraganda, qachonlardir odamlar so'zlashadigan tillarning soni 7 mingdan 8 mingtagacha yetgan bo'lsa, bugungi kunda sayyoramizda 6 mingta til mavjud, ularning 90 foizi yo'qolib ketish arafasida turibdi.

Til – VATAN TIMSOLI

Til davlat timsoli, mulki, millatning bebaho boyligi, xalqning madaniyati, qadriyati, urf-odati, o'lmas tarixidir.

**G'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiyning
ta'biri bilan aytganda:**

"Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin".

Dunyo mamlakatlarining 75 foizida milliy tilni himoya qilish maqsadida tilga oid davlat siyosati mavjud.

Bosh Qomusimizning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, deb mustahkamlangan.

Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ilova qilingan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi davlat tili rivojida muhim qadam bo'ldi. Unga asosan o'zbek tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, sofligini saqlash, raqamli texnologiyalar asosida faol integratsiyalashuvini ta'minlash kabi real vazifalar asosida davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

XALQARO TAJRIBADA TIL MAQOMI

Tillarning maqomi turli mamlakatlarda turlicha. Xalqaro tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, masalan, Germaniyaning "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunida ma'muriy organga faqat nemis tilida murojaat qilish shartligi to'g'risidagi norma belgilangan. Germaniya fuqaroligi to'g'risidagi qonunda fuqarolar "nemislar" degan tushuncha bilan ifodalanadi. Nemis tilini lozim darajada bilish Germaniya fuqaroligiga qabul qilinishning muhim sharti sifatida belgilangan.

Ukrainada 2019-yilda qabul qilingan qonunga ko'ra, deputat va mansabdor shaxslar davlat tilidan boshqa tilda chiqish qilganligi uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Ukrainada "Til ombudsmeni" lavozimi ham joriy etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi ukrain tilini davlat tili sifatida faoliyat yuritilishini ta'minlashdan iboratdir.


Latviyada davlat tili normalarini buzganlik uchun javobgarlik doirasi ancha keng. Jumladan, ommaviy tadbirlarda yoki ish jarayonidagi majlislarda davlat tiliga tarjima yo'lga qo'yilmaganlik uchun jarima jazosi ko'zda tutilgan. Shuningdek, davlat tilini lozim darajada bilmaydigan xodimni ishga olgan ish beruvchiga ham ma'muriy javobgarlik belgilangan. Latviyada davlat tilida ish yuritilmaganlik uchun javobgarlikka 140 yevro miqdoridagi jarima belgilangan bo'lib, Latviya parlamenti tomonidan ko'rib chiqilayotgan qonun loyihasiga ko'ra mazkur huquqbuzarlik uchun jarima miqdorini 1400 yevrogacha belgilash taklif etilmoqda.

Yevropaning madaniy markazi bo'lgan Fransiya uchun fransuz tili milliy qadriyat kabi. Shu sababli faranglar yurtida ko'cha-kuyda davlat tilidan boshqa yozuvni ko'rmaysiz. Qo'shimchasiga bu qadriyat qonun bilan mustahkamlangan. Davlat tiliga oid normani buzish jismoniy shaxsga oilaviy budgetning 700 yevrosidan mahrum bo'lishga olib keladi. Tabiiyki, mehnat munosabatlarida ham faranglar to'liq ona tilida ish yuritishadi.

Baxtiyor QO'SHBOQOV,

Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



QORAQALPOG'ISTON

Qo'ng'iroq mintaqaviy temir yo'l uzeli UK Urganch Lokomotiv deposida chilangar lavozimida ishlagan fuqaro J.X. To'rtko'l tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, joriy yilning 28-may kuni tuman Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga zararli ishda ishlagan uchun muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash masalasida murojaat qilgani, pensiya jamg'armasi esa "Mehnat sharoitlarini baholash va mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinlarini attestatsiya qilish uslubi"ga asosan ish o'rni attestatsiyadan o'tkazilmagan, degan vaj bilan uning talabini rad etganini bildirib, shu masalada amaliy yordam berishni so'ragan.

ZARARLI MEHNAT
SHAROITIDA ISHLAGAN,
AMMO...

Mazkur murojaat tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganilib, haqiqatan ham J.X.ning Qo'ng'iroq mintaqaviy temir yo'l uzeli UK Urganch Lokomotiv deposida 2007-yildan buyon chilangar lavozimida o'ta zararli mehnat sharoitida ishlaganlik fakti aniqlandi. Xodimning muddatidan oldin pensiyaga chiqish huquqlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlari bo'yicha Beruniy tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Mazkur ish sudda ko'rib chiqilib, da'vo qanoatlantirildi. Fuqaroning 2007-yil 1-iyundan hozirga qadar Urganch Lokomotiv deposida chilangar lavozimida o'ta zararli bo'lgan mehnat sharoitida ishlaganlik faktini belgilash yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilindi.

Bekpo'lat AVAZMETOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik
xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

NAVOIY

Adliya idoralarining sa'y-harakati bilan Navoiy viloyat tuman, shaharlarida mehnat munosabatlardagi nizolar yoki mehnatga haq to'lashga doir ko'pgina qoidabuzarliklarga sudlarga kiritilayotgan da'vo arizalari orqali chek qo'yilmoqda.

Xo'jalik
bekalari
nega
norozi?

Xususan, Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Navoiy viloyat hududiy filialida xo'jalik bekasi vazifasida ishlab kelayotgan G. Jalilova, X. Tursunova, N. Axatovlarning oylik maoshiga to'lanadigan ustama miqdorining kamligi yuzasidan Navoiy shahar adliya bo'limiga qilgan murojaati o'rganilganda, xuddi shunday qonunbuzilish holati aniqlandi.

Ma'lum bo'lishicha, ushbu tibbiyot muassasasida 2020-yildan 2023-yilga qadar xo'jalik bekalarining oylik ish haqiga ustama to'lovlari kam to'langan. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 10-sentabrdagi 292-sonli qaroriga muvofiq tibbiyot tashkilotlarining xo'jalik bekalariga har oy eng kam ish haqining 25 foizida ustama to'lanishi belgilangan. Tibbiyot markazi esa o'z xodimlariga bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqqan holda ustama to'lagan.

Shahar adliya bo'limi tomonidan mazkur holat yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Karmana tumanlararo sudiga kiritilgan da'vo arizasi qanoatlantirildi. Sudning hal qiluv qarori bilan G. Jalilova hamda X. Tursunovalarning har biriga 8 million 209 ming so'mdan, N. Axatovaga 6 million 182 ming so'm ish haqi ustama pullari undirildi.

Shuningdek, shahar adliya bo'limiga Navoiy viloyat perenatal markazidan 8 nafar, viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazidan 7 nafar, viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazidan 6 nafar xo'jalik bekalarining murojaatlari sudda ko'rib chiqilib, ijobiy hal etildi.

Azamat XOLMO'MINOV,
Navoiy shahar adliya bo'limi boshlig'i

NAMANGAN

USTAMA SUD ORQALI
UNDIRILDI

Mingbuloq tuman "Mulkobod" mahallasida yashovchi fuqaro N. Eshnazarov adliya bo'limiga murojaat qilib, Mingbuloq tuman Axborot kutubxona markazida Axborot-kommunikatsiya va raqamlashtirish xizmati rahbari vazifasida ishlab kelayotgani, ammo uning oylik ish haqiga Prezidentimizning 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan to'lanishi lozim bo'lgan ustama to'lanmagan bo'ls, uni undirishda amaliy yordam so'ragan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan N. Eshnazarovning murojaati o'rganilganda, uning 2020-yil yanvardan 2023-yil may oyiga qadar bo'lgan davr uchun to'lanmay qolgan ustama haqi miqdori 60 million 914 ming 601 so'mdan iborat ekani aniqlandi.



Adliya bo'limi tomonidan Axborot kutubxona markazi ma'muriyatiga ustamani to'lab berish haqida taqdimnoma kiritilishiga qaramasdan, ustama to'lanmagan. Shundan so'ng fuqaroning manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Namangan tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning 2023-yil 3-iyuldagi qarori bilan da'vo arizasi qanoatlantirilib, N. Eshnazarov foydasiga 60 million 914 ming 601 so'm miqdoridagi ustamani undirish belgilandi.

Halimjon QOBILOV,
Mingbuloq tuman adliya bo'limi boshlig'i

SURXONDARYO

MIGRANTLARGA
MIKROQARZ BERILADI

Prezidentimizning 2020-yil 15-sentabrdagi 4829-sonli qaroriga ko'ra "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oila a'zosi sifatida e'tirof etilgan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi yo'li bilan vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketayotgan shaxslarga mikroqarzlarni beriladi.

Mikroqarzlarni xorijda ishgajoylashish (shu jumladan, yo'l haqini to'lash va mehnat faoliyatiga ruxsat olish) bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun 10 million so'mgacha miqdorda bir yil muddatga beriladi.

Mikroqarz foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, lekin asosiy stavkaning 1,5 baravaridan ko'p bo'lmagan qismi kompensatsiya qilinadi.

Valijon RAVSHANOV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

XALQ BILAN!



NAMANGAN

HAR HAFTADA YUZMA-YUZ MULOQOT

Xalq dardiga quloq tutish, ularni qiynab kelayotgan masalalarni joyiga chiqqan holda o'rganish va tegishligi bo'yicha hal etishga qaratilgan sa'y-harakatlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda.



Namangan viloyat adliya boshqarmasi tuman, shahar adliya bo'limlari xodimlari tomonidan aholi murojaatlarini o'rganish va ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish yo'lida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Buni "Men mahallam huquqshunosiman", "O'zimiz keldik" kabi loyihalarning samarasidan ham ko'rish mumkin.

Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'tkaziladigan "Sayyor qabul"lar bilan cheklanib qolmay, tuman, shahar adliya bo'limi xodimlari ham bel-

gilangan grafik asosida mahallalarda uchrashuv, muloqot va sayyor qabullarni o'tkazmoqda. Har haftaning payshanba kuni viloyatimizning 14 ta hududida adliya xodimlarining yuzma-yuz muloqotlari tashkil etilib, fuqarolarga huquqiy yordam ko'rsatilmog'da.

Jumladan, To'raqo'rg'on tuman adliya bo'limi tomonidan "Namuna" mahalla fuqarolar yig'inida o'tkazilgan sayyor qabul jarayonida 6 nafar fuqaroga huquqiy tushuntirish berilib, 3 nafar fuqaro murojaati adliya bo'limining ish yurituviga olindi. Qabulda ishtirok etgan T. Irsovaning ish haqi kam to'langanidan norozi bo'lgan murojaati, Z. Olishva va Z. Karimovalarning arxiv ish haqi ma'lumotlarida ism-familiyalari turli xil yozilgani sababli, yoshga doir pensiya tayinlanmayotganidan norozi bo'lgan murojaatlari bo'lim ish yurituviga olindi. Shuningdek, sayyor qabul jarayonida 7 nafar fuqaroga sayyor davlat xizmatlari ko'rsatildi.

Davlatobod tumanidagi "Mustaqillik" mahallasida tashkil etilgan qabulda fuqaro A. Ubaydulayevga shifoxonada davolanish uchun order olishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Albatta, bu kabi sayyor qabul va ochiq muloqotlarni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarning muammoli masalalariga ijobiy yechim topish hamda mahallalarda istiqomat qiladigan aholining huquqiy savodxonligini oshirishdan iborat.

Ulug'bek ISMATTILAYEV,
Namangan viloyat adliya boshqarmasi
boshlig'ining birinchi o'rinbosari

SURXONDARYO

XIZMATI YOQADI, to'lovi chaqadi-mi?



Jarqo'rg'on tuman adliya bo'limi tomonidan "Petromaruz Uzbekistan" mas'uliyati cheklangan jamiyati va "Qiziriq tuman yo'llardan foydalanish" unitar korxonasi o'rtasida imzolangan shartnoma shartlari bajarilmasdan kelinayotganiga oid murojaat o'rganib chiqildi.

O'rganish davomida 2023-yil 4-mart kuni tomonlar o'rtasida bitum mahsulotini yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzilgani, shartnomaga ko'ra yetkazib beruvchi tomonidan iste'molchining buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi 739 million 170 ming 880 so'mlik bitum mahsulotlari o'z vaqtida yetkazib berilgan bo'lsa-da, shartnoma bo'yicha kelishuv muddati buzilgani, ya'ni arizani o'rganish kuniga qadar "Xaridor" tomonidan "Sotuvchi"ga mahsulotlar puli to'lab berilmagani aniqlandi.

Tadbirkor tomonidan buyurtmachiga O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunining 17-moddasi tartibida talabnoma yuborilgan bo'lishiga qaramasdan, ushbu talabnoma javobgar tomonidan oqibatsiz qoldirilgan.

Tuman adliya bo'limining o'rganish natijalariga ko'ra, Qumqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritilib, "Petromaruz Uzbekistan" mas'uliyati cheklangan jamiyati foydasiga unitar korxonadan 739 million 170 ming 880 so'm undirilishi sud tartibida belgilandi.

Safar ALLANAZAROV,
Jarqo'rg'on tuman adliya bo'limi boshlig'i

BILASIZMI?



Xorijliklar O'zbekistonga kirish uchun...

Xorijiy fuqarolarga O'zbekistonga kirish vizalari quyidagi hollarda beriladi:

✓ O'zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik muassasalari tomonidan, bunday konsullik muassasalari mavjud bo'lmagan taqdirda esa – Tashqi ishlar vazirligining ikki tomonlama bitimi mavjud bo'lgan boshqa davlatlarning konsullik muassasalari tomonidan beriladi.

Bosh konsulliklar, konsulliklar, vitse-konsulliklar, konsullik agentliklari va elchixonalarining konsullik bo'limlari O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi konsullik muassasalari hisoblanadi.

✓ Xalqaro aeroport maqomiga ega bo'lgan O'zbekiston aeroportlaridagi Tashqi ishlar vazirligining bo'linmalari tomonidan beriladi. Aeroportlarda TIV konsullik muassasalari va bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga kirish vizalari xorijiy fuqarolarning barcha toifalariga beriladi.

O'zbekistonning elektron vizalar rasmiy portali orqali elektron vizalarini rasmiylashtirish mumkin. O'zbekistonga kirish vizalari 1 yildan ortiq bo'lmagan muddatga beriladi. Ayrim fuqarolarga 3 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

QOIDANI BUZGANLARGA JAZO BOR

Chet el fuqarolari Rossiya Federatsiyasida bo'lish, migratsiya ro'yxatida turish yoki ishga joylashish qoidalarini buzganliklari uchun Rossiya qonunchiligiga ko'ra, jarima qo'llanilishi yoki Rossiyaga kirish huquqi sud qarori bilan cheklanishi va davlatdan chiqarib yuborilishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasining davlat chegarasini noqonuniy kesib o'tish Rossiyaga kirish huquqiga qo'yilgan cheklorlar doirasida ma'muriy yoki jinoyi javobgarlikka sabab bo'ladi.

Kirish taqiqlanganligi to'g'risidagi ma'lumotni quyidagi havola orqali aniqlash mumkin – www.fms.gov.ru.

Rossiya Federatsiyasiga kirishga qo'yilgan taqiqni olib tashlash uchun vakolatli organning kirishga ruxsat bermaslik to'g'risidagi qaroriga nisbatan sudga yoki Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya departamentiga shikoyat qilish mumkin.

1993-yil 22-yanvardagi "Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi Minsk konvensiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining hududiy bo'linmasiga yoki Rossiyada taqiqni o'rnatgan organga quyidagi manzillar orqali elektron murojaat yo'llashi mumkin – www.mvd.rf.

Gulmira AKMURODOVA,
Buxoro tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi mudiri

6 KO'ZGU

DAVO EMAS,
JAZO BO'LDI

Izboskan tumanida yashovchi S. Salimov (ism-shariflari o'zgartirilgan) ancha vaqtdan buyon kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari savdosi bilan shug'ullanib kelayotgandi. Bir qarashda ko'pchilik uncha e'tibor bermaydigan faoliyat. Biroq "Ko'za kunda emas, kunda sinadi" deb bejiz aytishmagan.

Joriy yilning 13-mart kuni tushlik mahali Sanjarga Jamshid ismli tanishi qo'ng'iroq qilib, "Tropikamid" dorisi bor-yoqligini so'raydi.

– Bunaqa masala telefonda hal bo'lmaydi, oshna. Uchrashib gaplashib olamiz, – deydi u.

Xullas, ular Andijon shahrida uchrashishga kelishishadi. S. Salimov Izboskan tumani markazi Poytug' shahridan Andijonga qarab yo'lga tushadi. Shaharga yetib kelgach Qo'shariq dahasi-da mashinani to'xtatadi.

– Bir daqiqa kutib turing. Mana bu omonatni egasiga berib qo'yay, – deydi qo'lidagi yelim xaltani ko'rsatib.

Lekin ko'zdan panaroq joyga o'tib, xaltani daraxt ostiga yashirib qo'yadi. So'ngra mashinada "Vladivostok" oshxonasiga borib, o'sha yerda mijoz bilan uchrashadi. Ya'ni, 98 dona "Tropikamid" kuchli ta'sir qiluvchi dorini 1 ming 160 AQSh dollariga sotishga kelishadi. Savdo "pishgach", taksida borib, dorini olib keladi.

– Mana, – deya yelim xaltaga solingan dorini oshxonada o'tirgan Jamshidga uzatadi.

Ammo... "tovar" evaziga 1 ming 200 AQSh dollarini sanab olayotgan mahali viloyat IIB tez-


kor xodimlari tomonidan qo'lga olinadi. Oqibatda S. Salimovga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Yaqinda mazkur holat jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudida ko'rib chiqildi. Shunda ayon bo'ldiki, S. Salimov muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Shaxrison tuman sudining 2021-yil 5-oktabrdagi hukmi asosida Jinoyat kodeksining tegishli bandleri bilan aybdor deb topilib, 1 yil 1 oy muddatga axloq tuzatish ishlari jazosiga tortilgan. Lekin bundan o'ziga to'g'ri xulosa chiqarish o'rniga 5 oy deganda yana jinoyatga qo'l urgan. Sud S. Salimovga jazo tayinlashda aybiga to'liq iqrar va qilmishidan pushaymonligini, muqaddam sudlangani hamda qasddan yangi jinoyatga qo'l urgani, jinoyatni g'araz va past niyatlarda sodir etgani kabi jazoni ham yengillashtiruvchi, ham og'irlashtiruvchi holatlarni inobatga oldi. Bu gal u Jinoyat kodeksining 251¹-moddasi uchinchi qismi bilan aybdor deb topilib, 7 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

Muhayyoxon TURDIYEVA,

jinoyat ishlari bo'yicha Andijon shahar sudining sudyasi

Ma'lumki, Fuqarolik protsessual kodeksining 3-moddasiga ko'ra, har bir shaxsga o'z huquqlarini, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish kafolatlanadi.

XODIMNING DA'VOSI TO'G'RI EDI,
AMMO ISHIGA TIKLANMADI

Ba'zan ularning nuqtayi nazarlari, keltirgan vajlari haqiqatda to'g'ri bo'lsa ham, sud ularning da'volarini qanoatlantirmaydi, rad qiladi.

Xo'sh, xodim haq bo'lsa-da, nima sababdan sudda yutqazadi?

Quyidagi vaziyat tahlilida yuqoridagi savollarga javob topish mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi-metodist vazifasida ishlab kelgan da'vogar 2023-yil 3-mayda ishdan bo'shatilganini noqonuniy deb, uni ishga tiklash da'vosi bilan 2023-yil 21-avgustda murojaat qilgan. U o'z da'vosida ish beruvchining mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyrug'i Mehnat kodeksining 162-moddasiga zid ravishda chiqarilgan deb hisoblashini, tashkilotda Ichki mehnat tartibi qoidalarini tuzilmagan bo'lsa-da, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish haqida buyruq chiqarib, uni mehnat qilish huquqidan mahrum qilganini bildirib o'z vazifasiga tiklashni so'ragan.

Sud majlisida javobgar vakili da'voni tan olmadi, da'vogar bilan mehnat shartnomasini bekor qilish tartiboti to'g'ri olib borilganini tushuntirdi. Dalil sifatida javobgar tarafi zarur hujjatlarni taqdim etdi. Bundan tashqari, da'vogar bilan mehnat shartnomasi 2023-yil 3-mayda bekor qilingan bo'lsa-da, u da'vo bilan 2023-yilning 21-avgustida murojaat qilgan. Da'vogar bunday talab bilan mehnat shartnomasi qilish muddatini o'tkazib yuborgani tufayli da'voni rad etishni so'radi.

Sud taraflarning izohlarini tinglab, ish materiallari bilan tanishib, yakuniy xulosaga keldi. Da'vogar haqiqatan ham javobgar bilan ikki o'rtada tuzilgan 2019-yil 12-martdagi mehnat shartnomasi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotiga tarbiyachi-metodist lavozimiga ishga qabul qilingan. 2023-yil 3-maydagi buyruq asosida u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismining 5-bandiga asosan mehnat

vazifasini bir marta qo'pol ravishda buzgani uchun bekor qilingan. Mehnat shartnomasini bekor qilish haqidagi buyruqqa asos sifatida ichki mehnat tartibi qoidalarini (IMTQ) keltirilgan. Vaholanki, tashkilot tomonidan taqdim etilgan hujjatlar o'rganilganda, IMTQ tuzilmagani aniqlandi.

Mehnati kodeksining 162-moddasiga ko'ra, xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelishi mumkin bo'lgan mehnat majburiyatlarining bir marta qo'pol ravishda buzilishi ro'yxati tasdiqlangan.

Xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishga olib kelishi mumkin bo'lgan mehnat majburiyatlarining bir marta qo'pol ravishda buzilishi ro'yxatini belgilashda nojo'ya xatti-harakatning og'ir-yengilligidan hamda bunday nojo'ya xatti-harakat keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlardan kelib chiqish lozim.

Mehnati kodeksining 560-moddasiga ko'ra, yakka tartibdagi mehnat nizosining ko'rib chiqilishi uchun sudga murojaat qilishning quyidagi muddatlari belgilanadi:

- ☑ ishga tiklash to'g'risidagi nizolar bo'yicha – xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinishi haqidagi ish beruvchi buyrug'ining ko'chirma nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran uch oy;
- ☑ xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi nizolar bo'yicha – ish beruvchi zarar yetkazilganini aniqlagan kundan e'tiboran bir yil;
- ☑ boshqa mehnat nizolari bo'yicha – xodim o'zining huquqi buzilgan to'g'risida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan e'tiboran olti oy.

Xodimning hayotiga va sog'lig'iga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplash to'g'risidagi nizolar bo'yicha, shuningdek xodimga yetkazilgan ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish haqidagi nizolar bo'yicha sudga murojaat etish muddati belgilanmaydi.

Yakka tartibdagi mehnat nizolarini ko'rib chiqish bo'yicha sudga murojaat etish muddatining o'tishi yakka tartibdagi mehnat nizosini mediatsiya tartibida ko'rib chiqish davrida to'xtatib turiladi.



Shunday qilib, sud da'vogar buyruq nusxasini 2023-yil 3-mayda olganini, sudga talablar bilan 2023-yil 21-avgustda murojaat etganini, javobgar tarafi ushbu talablarga da'vo muddatini qo'llash haqida ariza berganini, da'vogar esa muddat o'tkazib yuborilishining uzrliligi to'g'risida hech qanday hujjat taqdim etmaganini e'tiborga oldi. Javobgarining da'vo muddatini qo'llash haqidagi arizasini asosli deb topdi, da'vogarning talabini esa qanoatlantirmasdan rad etdi.

Da'vogar sudning qaroridan norozi bo'lib, apellyatsiya shikoyati yozdi. Apellyatsiya instansiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 399-moddasi 1-bandining birinchi qismiga asoslanib, birinchi instansiya sudning qarorini o'zgarishsiz qoldirdi. Da'vogarning apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirish rad etildi.

Aslini olganda, xodim da'voda haq edi. Ish beruvchining buyrug'i qonun talablariga zid ravishda qabul qilingani aniq edi. Lekin xodim sudga murojaat qilish muddatini o'tkazib yuborgani va javobgar taraf sudga da'vo muddatini qo'llash va da'voni rad qilish haqidagi iltimosnoma bilan murojaat qilgani sababli sud ushbu da'voni qanoatlantirishni rad qildi.

Sherzod TOLIBOV,

Marg'ilon shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Tyutor kim?

Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, kelajagimiz egalarini barkamol insonlar etib kamolga yetkazishga alohida e'tibor qaratish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biridir.



Maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'limning uzviy bosqich-ma-bosqich tizimli ravishda bo'lishi, biri-birini to'ldiradigan, boyitadigan tizim ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta, har birimiz qaysi sohada tahsil olishimiz, mehnat qilishimizdan qat'iy nazar, ustoz va murabbiylarga ehtiyoj sezamiz, ularga suyanamiz.

Ma'lumki, hukumatimiz tomonidan 2021-yil 1-sentabrdan oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilan ishlash bo'yicha guruh murabbiysi bekor qilindi. 1-3-kurs talabalar uchun muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam ko'rsatuvchi tyutorlarni birlashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.



Tyutor kim, degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Ularning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Tyutorlar – talabalarining ma'naviy va ijtimoiy holatini doimiy ravishda tahlil qilib boradi va ularga mavjud muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam beradi. Shuni inobatga olgan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi tuzilmasida Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoring qilish bo'limi tashkil etildi.

Demak, tyutor – (o'qituvchi-maslahatchi) talabalarga nafaqat bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam beradigan, balki ta'lim muhitini yaratadigan shaxs. Talabalar, ayniqsa, birinchi kurs talabalar uchun barcha savollar bo'yicha bog'lanish

mumkin bo'lgan bunday shaxsga ega bo'lish juda muhimdir. Zero, tyutor ham do'st, ham maslahatchi. Birinchi kurs talabalar o'zlari uchun mutlaqo notanish bo'lgan yangi muhitga moslashishlari uchun, ayniqsa, tyutorga ehtiyoj sezadilar. Tyutor shuningdek, talabalarining shaxsiy rivojlanishiga, institut, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashadi. U yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi.

Har bir tyutor o'ziga birlashtirilgan akademik guruhlarning darslarini, dars sifatining monitorini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, talabalar turar joyiga joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishida talabaning ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnoma va akademik ta'vil berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega.

Bundan tashqari, qat'iy nazoratga olingan muhim qoidalar ham bor. Har bir tyutor talabalarining sha'ni va qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo'lish, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilish, yoshlarning ota-onalari bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir.

Gulzoda NASRIDDINOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti filologiya va tillarni o'qitish fakulteti tyutori

Hasad



Yigit nogiron edi. Raso qizni sevib qoldi. Unga erishish imkonsiz... Ammo mo'jiza sodir bo'ldi. Qarshisida paydo bo'lgan Hizrni ko'rib yigit shoshib qoldi.

– Muhabbatingga yetasan, bo'tam. Tila tilagingni!

Hizr yigitdan "oyoqlarim yurib ketsin", degan istakni kutgandi. Biroq uning tilidan:

– Suyganim ham yurolmay qolsin, – degan so'zlar uchdi...

Nodirabegim IBROHIMOVA

Nasiba

Deraza ortidan lip etib sharpa o'tdi.

– Ashraf ota, – dedi O'jamol. – Nima qildik?

Er-xotin jigar qovurib, endi yemoqchi bo'lib turishgan edi. Egamqul aftini keskin burishtirib:

– Oshga pashsha tushdi. Yashir, – dedi.

– Ko'zimiz uchib turuvdi-ya! Qorong'udayam tinmaydi bu chol. O'jamol qovurdoqni yashirdi. Eshik ochildi, ro'molga tovoq tugib olgan chol ko'rindi.

– Kampir osh qiluvdi, – dedi chol. – Sizlar-qayam ilindik...

Shoniyoz MELIBOYEV

Sadaga



Yigit shoshib kelardi. Ko'zi yo'l chetida turgan yosh bolali tilanchi ayolga tushdi. Bolasi ochlikdan tamshanib yigitga mo'ltirab boqdi. Yigit to'xtab qoldi. Cho'ntagidagi g'ijim pulni shundoq oldida, bolachaning kir qo'llariga tutdi.

Tag'in yo'lida davom etdi, ammo qayerga borishni bilmasdi. Bu pul uning dori olish uchun uyidan olib chiqqan so'nggi puli edi...

Kamoliddin SHUKUR

Adolatli yechim


Hazrati Umar roziyallohu anhu Amr ibn Os roziyallohu anhuri Misrga hokim qilib jo'natayotgan paytlarida o'rtalarida shunday suhbat bo'lib o'tdi:

– Agar oldingga o'g'ri kelsa, nima qilasan?!


– Uning qo'lini kesaman!

– Agar mening oldimga qorni och kelsa, sening qo'lingni kesaman!

“Sudya ma'naviyati, odobi va mas'uliyati” kitobidan



8 ADOLATSIZ HUKM

SUDNING
ENG YOSH
QURBONI:

1944-yil, 16-iyun. AQShning Karolina shtati. Alkol shahridagi mudhish qamoqxona. 14 yoshli o'smirni ikkita barzangi kalon-na noziri o'lim isi kezib yurgan tor yo'lak bo'ylab olib ketyapti. Oyoq ostida pol ezig'in g'ichirlaydi. Bunga Jorjning qaltiragan oyoqlari sababdir, ehtimol, tabiat ham chidayolmayapti, uning noodil qarorlarga qarata isyoni bu: tashqarida Karolina to'fon ichida! Xayolida koptok tepishu, rogatka otishdan bo'lak jiddiyoq masalani hali o'ylab ko'rmagan, oyoq-qo'llari shilinih-tilinishdan boshqa og'riqni hali his etmagan bola ko'ngli muqarrar o'lim sari ketayotib zir-zir titraydi.

Jorj Stinni qamoqxonada.

"Judayam og'irmikan?! Men bu dunyoda boshqa bo'lmaymanmi? Oyijon, qayerdasiz? Bular meni nima qilishmoqchi?". Ehtimol, shunday o'ylar kechgandir uning xayolidan. Ammo uning o'ylari hech nimani hal qilmas edi, uni hech kim qutqarolmas edi. Bahaybat elektr stul qarshisida murg'ak titragan vujud. Uni o'tirg'izishdi. Jorj esa elektr stul uchun judayam kichiklik qilardi. Uni o'rindiqqa o'tqazishganida boshi dubulg'aga yitib bormadi, qo'llari kamardan sirg'alib chiqib ketdi. Shunda Jorj qamoqda kechgan uch oyi davomida qo'ldan biror marta qo'yamagan injilni uning ostiga qo'yishdi, oddiy arqonlar bilan tanasini chirmab bog'lab, oqimni yoqishdi... sud hukmi ijro etildi.

MUDHISH QOTILLIK VA YAGONA GUMONDOR

Janubiy Karolinaning Alkol shahrida 1944-yilda 8 va 11 yoshli ikki oq tanli qiz zo'rlab o'ldirilib, jasadlari ariqqa tashlab ketiladi. Jorj Stinni ana shu qo'shqotillikda ayblanadi.

O'sha paytlarda tarqalgan xabarlarga ko'ra, 11 yoshli Betti va 7 yoshli Meri temir yo'l bo'ylab o'sgan gullarni terish uchun velosipedda sayr qilib yurishardi. Ertasi kuni ularning jasadlari afro-amerikaliklar mahallasidan topiladi. Qizchalar murdasi tanib bo'lmas darajada, zo'rlangan, boshiga qattiq jism bilan urilgan, deyiladi manbalarda.

Shu kuni yagona gumondor qo'lga olinadi. Bu 14 yoshli qora tanli Jorj Stinni edi. Jorjning qotillikda gumonlanishining yagona sababi oxirgi marta uni qizlar bilan temir yo'l yonida gaplashib turganini ko'rishgan. Jorj sudda bergan ko'rsatmasida: "Betti va Meri mendan ehtiros guli qayerda o'sishini so'rashdi, men bilmayman, deb javob berdim", deydi.

elektr stulda qatl
qilingan 14 yoshli
o'smir hikoyasiNEGA ENDI JORJ? CHUNKI U
QORA TANLI!

Qanday qilib voyaga yetmagan, o'smir bola bunday og'ir jinoyatga qo'l urishi mumkin? Mumkin: chunki u qora tanli! Qo'shma Shtatlarda irqchilik shtat tashkil topganidan boshlab mavjud edi. O'zining millati va diniga ko'ra bir-biridan farq qiladigan oq tanlilar tomonidan asos solingan jamiyat boshqa guruhlariga judayam past nazar bilan qarar edi. Irqchilikning asosiy qurbonlari oq tanli bo'lmagan mahalliy xalqlar – hindular va qora tanli qullar, ayniqsa, afro-amerikaliklar edi. Qonuniy jihatdan fuqarolik huquqlari faqat oq tanli aholiga tegishli bo'lgan. Irqchilikni yengish bo'yicha sezilarli muvaffaqiyatlar esa faqat 1960-yillarda, fuqarolik huquqlari harakatining muvaffaqiyatlari natijasida tenglikni ta'minlash va Afrikani bir-biridan ajratib turgan ko'p asrluk tafovutni bartaraf etish uchun muhim siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy choralar ko'rilganda boshlandi. Shu nuqtayi nazardan 40-yillarda qora tanlilarga bo'lgan nafrat amerika jamiyatida hali yuqori darajada edi. Jorj yashaydigan shaharcha temir yo'l orqali ikki qismga "oq" va "qora" hududlarga bo'lingan. "Oq" qismida oq tanlilar farovon hayot kechirar, "qora" qismida qora tanlilar ishsizlik, qashshoqlik va jinoyatchilik hukm surgan muhitda yashar edilar.

Qizchalar bilan oxirgi marta Jorj Stinni gaplashgan. Oq tanli qizlarni qora tanli o'z hududida – afro-amerikaliklar yashaydigan hududda o'ldirdi degani o'sha davr oq tanlilar jamiyati uchun qattiq xo'rlash edi. Politsiyaga ham aybni bo'yniga qo'yib, eng og'ir jazoga tortish uchun ayni muqobil gumondor Jorj bo'ldi.

10 DAQIQADA HAL ETILGAN
O'LIM HUKMI

Manbalarda aytilishicha, Jorj ota-onasi yoki boshqa voyaga yetgan qarindoshlari yo'qligida hibsga olingan va advokat ishtirokisiz so'roq qilingan. Sud atigi uch oy davom etadi, qora tanli o'smirning ota-onasi o'g'lini qoldirib, shaharni tark etishga majbur bo'ladi. Ularning nega o'z bolasini o'lim iskanjasiga tashlab, qochib ketganiga oid aniq materiallar yo'q. Lekin katta ehtimol bilan bu shaharchada qolish ular uchun judayam xavfli bo'lar, o'ldirilgan qizlarning ota-onalari, ularni toabad tinch qo'ymasligi kunday ravshan edi.

Sud jarayoni ham tez o'tadi – asosiy ko'rsatmani politsiya bergan, oxirgi sudda hakamlar hay'ati o'n daqiqa muhokamaga kirib, Jorjni aybdor deb topadi. Sud materiallarida Jorj aybiga iqror bo'lgani keltiriladi. Sud majlisida ayblanuvchining aybiga iqrorligi hukm chiqarish uchun asosiy dalil bo'lib hisoblangan, biroq u yozma shaklda saqlanmagan. Advokat ham yo'q, apellyatsiya berilmagan. Hukm darhol ijro etiladi. 1944-yil 16-iyunda Jorj Stinni qo'shqotillikda ayblanib, Binniker va Temzlar o'lasini (o'ldirilgan qizlarning qarindoshlari) ko'z o'ngida elektr stulda qatl qilinadi.

SUDNING AYANCHLI XATOSI:
70 YILDAN SO'NG OQLOV

O'sha yillarda irqchilik kayfiyati qanchalik avjida bo'lmasin, aybi to'la isbotlanmagan yigitchaning qatl etilishi jamoatchilikni larzaga soldi. Uning elektr stulga o'tirib mo'ltiraganlari, qo'rqinch ko'z yoshlari, qotil emasligi haqidagi gaplar hikoyalarga aylanib, tillardan-tillarga ko'chib yurdi. Faqat 70 yildan so'ng, 2013-yilda bu voqea jamoatchilik tomonidan ko'tarilib, qaytadan sud bo'lishiga erishildi. Bu paytga kelib Jorj-

ning 80 dan oshgan qarindoshlari: keksa opa-singillari va ukasi topildi. Sudga apellyatsiya shikoyati berishdi, qotillik payti Jorj ular bilan birga bo'lganini da'vo qilishdi. Bu orada Jorj bilan qamoqxonada bitta kamerada o'tirgan mahbus topildi. U Jorj o'limidan oldin "Men hech kimni o'ldirmaganman. Meni aybni bo'ynimga olishga majbur qilishdi", degani haqida guvohlik berdi.

2014-yilda qayta sud jarayoni bo'lib o'tdi. Unga sudya Karmen Myullen hakamlik qiladi. U intervyularidan birida: "Men inson huquqlarining bundan ortiq darajada buzilganini hech qayerda ko'rmaganman va tasavvur ham etolmayman", degan edi. Sudga ekspertlar o'lim hukmi uchun dalillar umuman yetarli emasligini, uning faqatgina aybiga iqrorligi haqida so'z bor, ammo yozma ko'rsatma yo'q, bu esa dalil bo'lmaganligini keltirishadi. Bundan tashqari, qizlarning jarohati anchayin og'ir va katta jism bilan yetkazilgan haqida dalillar mavjud. Mantiqan esa 14 yoshli, oriqli o'smir yigit bu qurolni ishlata olishiga ishonish qiyin.

Qatldan keyingi yillarda, Stinni ishi bo'yicha Alkol shaharchasidagi arra tegirmoni egasining o'g'li oq tanli yigitga qarshi bir nechta dalillar paydo bo'ladi. Ammo jinoyat ishi yopilgani uchun tergovchilar dalillarni tekshirib o'tirishmaydi.

Janubiy Karolina sudi 2014-yilda o'z hamkasblarining o'tmishdagi kechirib bo'lmaz xatosini va ular chiqargan hukmning noqonuniyligini tan oldi. Sudda o'lim hukmi bekor qilindi, ammo 70 yil oldingi faktlar, jinoyat ishi materiallari to'la saqlanmagan, rasman oqlov hukmi chiqarishning iloji yo'q edi. Yillar davomida Jorjning aybsizligini ta'kidlab kelgan jamoatchilik faollari va uning qarindoshlari uni oqlov deb qabul qilishdi. OAVlar Jorj Stinni oqlanganini e'lon qildi.

1988-yilda amerikalik jurnalist va yozuvchi Devid Stout Stinni ishi tafsilotlariga asoslangan "Karolina skeletlari" kitobini nashr etdi. 1989-yilda kitob eng yaxshi debut roman uchun Edgar Allan Po mukofotiga sazovor bo'ldi. Stoutning kitobida muallif Linus Bragg deb atagan Stinni qahramoni jinoyatda aybsiz bo'lib chiqadi.

Stoutning xuddi shu nomdagi romani rejissyor Jon Erman tomonidan suratga olingan (Jorj Stinni tarixi). Bragg/Stinni rolini Kenni Blan o'ynagan va u 1991-yilda eng yaxshi yosh aktyor mukofotiga sazovor bo'lgan.

Stinni haqidagi yana bir film (qisqa metrajli) "83 kun" deb nomlanadi. Rejissyor Endryu Pol Xauell, ssenariysi esa Rey Leonard Braun va Summer Mishel Xauell tomonidan yozilgan film bosh rollarni Devid Keyt, Metyu Bellous, Brett Rayslar ijro etgan. Film Stinni ishidagi haqiqiy hujjatlariga asoslangani aytiladi.

Madhiya AVAZOVA tayyorladi

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy xabarnar
markazi nashri
info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2020-7257

97720207257008

Bosh
muharrir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rino'boyeva
Yorbeck Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Gulbahor Oritxo'jayeva
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3500
Buyurtma – 3127

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirilgani – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18

Obuna bo'limi:

(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5